

Yulchiyeva Dilnoza Anvarovna

“ TILLAR” kafedrası katta o‘qituvchisi IIV Farg‘ona akademik litseyi,

E-mail: omad2449@mail.ru

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TURIZM TERMINLARINING SEMANTIK USUL BILAN YASALISHI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida turizmga oid bo‘lgan bir qator atamalarning semantik usul bilan yasalishi taxlil qilingan. Turizm – bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining muhim jabhalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Turizmning yangi turlarini paydo bo‘lishi bilan yangi terminlari ham vujudga kelmoqda. O‘tgan asrda turli sohalarga oid terminlar o‘zbek tiliga rus tili orqali Yevropa tillaridan o‘zlashgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, to‘g‘ridan to‘g‘ri chet tillaridan o‘zlashmoqda.

Kalit so‘zlar: Atama, turizm, tur, buyurtma, mehmonxona, soha, obyekt.

АННОТАЦИЯ: В данной статье семантическим методом анализируется формирование ряда терминов, связанных с туризмом, в английском и узбекском языках. Туризм сегодня является одной из важнейших отраслей экономики страны. С появлением новых видов туризма появляются новые термины. В прошлом веке термины, относящиеся к различным областям, были заимствованы из русского на узбекский язык через европейские языки, но сегодня они заимствованы непосредственно из иностранных языков.

Ключевые слова: Термин, туризм, тур, заказ, отель, промышленность, объект.

ANNOTATION: This article analyzes the formation of a number of terms related to tourism in English and Uzbek by semantic method. Nowadays tourism is one of the most important sectors of the country’s economy. New terms are appeared with the advent of new types of tourism. In the last century, terms related to various fields were borrowed from Russian into Uzbek through European , but today they are borrowed directly from foreign languages.

Key words: Term, tourism, tour, order, hotel, industry, object.

O‘zbek tilshunosligida so‘z ma‘nosining o‘zgarishi, ma‘noning ko‘chishi, polisemantik so‘zlarning ba‘zi ma‘nolari orasidagi bog‘lanish uzilib, ayrimlarining maxsuslanishi orqali yangi so‘zning hosil bo‘lishi semantik yoki leksik-semantik yo‘l bilan yasash deb yuritiladi. Ma‘lumki, tilda so‘zlarning ma‘nolari har xil usullar bilan ko‘chishi mumkin. Chunonchi, so‘z semantikasidagi o‘zgarish, asosan, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi semantik transformatsiya asosida ro‘y beradi. Tilshunoslarning yakdillik bilan bildirgan fikrlariga qaraganda, semantik usul bilan termin hosil qilishda asosiy rolni metafor o‘ynaydi. Chunki umumadabiy yoki jonli tildagi so‘zlarning biror xususiyatini, masalan, shaklan o‘xshashligini, rang-tusidagi bir xillikni asos qilib olish yo‘li bilan yangi-yangi terminlar vujudga keladi.

O‘zbek turizm terminlarining semantik usul bilan hosil qilinishi sof o‘zbekcha yoki o‘zbek tilida avvaldan ishlatilib kelingan inglizcha, arabcha va forsha, shuningdek, ayrim ruscha-baynalminal so‘zlarni yangi, turizmga oid ma‘noda qo‘llashdan iborat. Bu yangi ma‘no muayyan umumiste‘moldagi so‘zning avvalgi ma‘nolaridan biri asosida yuzaga keladi. Bunda ikki holatga e‘tibor berish kerak:

1. Turizm terminlarining oddiy, umumiste'moldagi so'zlarning bevosita terminlashuvi, ma'no xoslanishi orqali yasalishi.
 2. Turizm terminlarning bilvosita, ya'ni boshqa terminologik sistemalarda qo'llanuvchi terminlarning turizm terminologiyasida xoslanishi orqali yasalishi.
- I. Ba'zan umumtilda avvaldan mavjud bo'lgan, odatiy so'zlar o'zlarining tovush tarkibini va shaklini o'zgartirmagan holda turizm termini sifatida qo'llanilishi mumkin. Oddiy so'zning terminga aylanishi natijasida bu so'z muayyan terminologik sistemada yangi mazmun kasb etadiki, bu mazmun uning avval qayd etilgan ma'nolariga qo'shimcha bo'ladi.

Ma'lumki, ko'plab sof terminlari, ya'ni faqat termin funksiyasiga ega bo'lgan bir planli lug'aviy birliklarni qo'llash fan-texnika tilining farqlanuvchi belgilaridan biridir. Tilshunoslar qayd etganidek "eng oddiy so'zlar" ham terminlasha olishi mumkin". Bunday hollarda "ham terminologik, ham noterminlik funksiyasini bajaruvchi ikki planli lug'aviy birliklar" ko'zda tutiladi.

Ilmiy-turizm terminologiyasi ko'p jihatdan tilning leksik birliklarining semantik tuzilishini o'zgartirish asosida shakllangan atamalar hisobidan yasaladi. Bunda so'zning terminologiyasi semantik rivojlanishi sifatida tavsiflanadi. Umuman olganda terminologiya ikki tomonlama tushuniladi: 1. keng ma'noda ishlatiladigan leksik birlikning ma'nosini qayta ko'rib chiqish natijasida yangi terminologik birliklarni shakllantirishning barcha jarayonlarini qamrab oladi (ya'ni, bunday talqinda "terminologiya" va "terminlarning semantik usuli" teng deb hisoblanishi mumkin). So'z birikmalarining terminologiyasi davomida leksik birlikning semantikasini qisqartirish yoki kengaytirish jarayoni, turli xil ko'chim turlari, ya'ni leksik birlikning terminosferaga o'tishiga olib keladigan jarayonlar ro'y beradi. 2. Tor ma'noda terminologiya leksik birlikning semantik tuzilishidagi atamalarining toifasiga o'tish jarayonida alohida o'zgarishlarni anglatadi

Turizm terminologiyasi sohasida semantik usulda termin yasash endigina boshlanib, u qadar rivoj topmagan jarayondir. Biroq boshqa ba'zi terminologik sistemalarda, xususan, ijtimoiy-siyosiy va texnikaviy terminologiyalarda bu usuldan keng foydalaniladi, aytish mumkinki, bu termin hosil qilishning dominant usuliga aylangan. Buning sababi shundaki, ijtimoiy- siyosiy hayot sohalarining terminosistemalari o'tmish davrlarda xalq tili asosida yuzaga kelgan va jonli so'zlashuv tili bilan mustahkam aloqada rivojlangan. Shuning uchun xalq tiliga xos bo'lgan ko'pdan –ko'p metaforik qo'llanishlar ularda o'z aksini topgan.

O'zlashtirish asosida hosil bo'lgan terminlar turizm sohasida sof ilmiy terminlarga nisbatan ozchilikni tashkil etsa ham, ba'zan ular yangi ma'nolarida g'ayriodatiy ko'rinsa ham, yangidan yasalgan terminlar ilmiy matnda qo'llanish mobaynida semantik jihatdan maxsuslashib, xoslanib boradi. Binobarin, "terminlashtirilgan so'zlar bilan sof terminlar orasidagi farq ham ularning xoslanganlik darajasida, xolos".

Umumiste'moldagi so'zlarning terminlashuvi natijasida umumtildagi xilma-xil sinonimik, antonimik va boshqa konnatativ munosabatlari terminologik qo'llanishda tamoman boshqacha tus oladi. So'z terminga aylanar ekan, u ekspressiv va konnatativ jihatdan neytral so'zga aylanadi, uning umumtildagi o'ziga xos sinonimik va antonimik munosabatlari buzilib, bu munosabatlar o'rniga shu tipdagi yangicha munosabatlar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, terminologik ma'nodagi turizm xarajatlari birikma termini o'rniga turizm chiqimlari birikmasini qo'llab bo'lmaydi. Holbuki, umumadabiy tilda xarajat va chiqim ot shakllarining o'zaro sinonimligi ma'lum. Yoki tashrif buyuruvchi birikmasi turizm terminologiyasida jo'nab ketuvchi singari antonimik birikmaga ega bo'lmaydi.

Huddi yuqoridagidek, umumadabiy tilda bunga o'xshash antonimlik mumkin bo'lgan holatlar: ichki turizm – tashqi turizm, kirish – chiqish. Ushbu misollarda umumiste'mol so'zlarining terminga aylanib, o'zlarining avvalgi sinonimik va antonimik munosabatlaridan uzoqlashgani ko'rinib turibdi. Chunki mazkur so'zlar endi tegishli terminologik ma'nolarga ega bo'lib, turizm terminologiyasida maxsus tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Turizm tilida chiqish turizmi deyilganda rezident tashrif buyuruvchining murojaat etilayotgan mamlakatdan tashqaridagi faoliyatini yoki chiqish turistik sayohatining bir qismi sifatida yoki ichki turistik sayohatning bir qismi sifatidagi faoliyatini o'z ichiga olish tushuniladi. Kirish turizmi esa kiruvchi sayyohlik safari bo'yicha murojaat etilayotgan mamlakat ichidagi norezident tashrifchining faoliyatini o'z ichiga oladi

Ilmiy-texnikaviy terminologiya'ning boshqa sohalarida bo'lgani singari, o'zbek turizm terminologiyasida ham metaforik o'xshatish asosida yasalgan yuqoridagidek terminlar ko'plab uchraydi. Bunda umumadabiy yoki jonli tildagi muayyan so'z orqali ifodalangan predmet yoki hodisaning biror xususiyati, shaklan o'xshashligi, rang-tus yoki mazasidagi bir xillik yangi termin yasalishi uchun asos bo'ladi. Turistik xarakterli faoliyat birikma termini tarkibidagi xarakter so'zi umumadabiy tilda odam, narsa va hodisalarning o'ziga hos ko'rinishi, xususiyati, boshqalardan ajralib farq qilib turadigan tomoni deb qaralsa turistik xarakterli faoliyat odatda turistik xarakterli mahsulotlar ishlab chiqaradigan faoliyatdir.

Biroq iste'mol so'zining termin sifatida qo'llanishida boshqacharoq holni kuzatamiz. Istemol umumadabiy tilda "yeyish, ichish, qabul qilish, ehtiyoji uchun foydalanmoq, ishlatmoq" kabi ma'nolarini ifodalaydi. Terminologik ma'nodagi turizm iste'moli birikmasi "Turizm iste'moli turizm xarajatlari bilan bir xil rasmiy ta'rifga ega bo'lib, iste'mol tovarlari va xizmatlarini, shuningdek o'z foydalanishi yoki berish uchun, turistik sayohatlar uchun va pul operatsiyalariga to'g'ri keladigan qimmatbaho narsalarni sotib olish uchun to'langan summadan tashqari (turizm xarajatlarining yo'nalishi), shuningdek, u bilan bog'liq xizmatlarni ham o'z ichiga oladi. O'z hisobidan dam olish uchun turar joy, naturadagi turizm ijtimoiy transfertlari va boshqa shu kabi turizm xarajatlari uchun hisoblangan iste'moldir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, leksemalar termin sifatida qo'llanganda, o'zlarining umumadabiy tildagi izohidan keskin farqlanuvchi qat'iy definitsiyaga ega boladi. Ma'lumki, muayyan fan sohasida paydo bo'lgan va qo'llanayotgan terminlar ham metaforik tarzda ko'chma ma'noda ikkinchi bir soha doirasiga olib kiradi. Bu jarayon keyingi fan sohasining yangi termin bilan boyishiga sabab bo'ladi, ya'ni semantik usulda yangi termin hosil qilinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirzayev M., Aliyeva M. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011.
2. Биржаков М.Б. Введение в туризм. – СПб.: Издательский Торговый Дом «Герда», 2009. – 444 с.
3. Aliyeva M.T., Xo'jayev O'. X., Norchayev A.N. Turizm

- rivojlanishini prognozlash. O'quv qo'llanma. — T.: TDIU, 2006. – 214 b.
4. Ушаков Д.С. Технология выездного туризма. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2009. – 240 с.
 5. Aliyeva M.T., Mirzayev M. va boshqalar. Turizm huquqi. O'quv qo'llanma. – T: Talqin, 2003. – 245 b.
 6. Косолюнов А.Б. Теория и практика экологического туризма. Учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2007. – 253 с.
 7. Ушаков Д.С. Технология выездного туризма. Учебное пособие. - М.: Финансы и статистика, 2009. 240 с.
 8. Travel Guide Uzbekistan. – Tashkent: National Company Uzbekturizm, 2003. – 10 p.
 9. Алиева М.Т. Развитие индустрии туризма // Международные Плехановские чтения, 19 апреля РЭА. им.Г. В. Плеханова. – М., 2006.
 10. Алиева М.Т. Тенденции развития туризма в Узбекистане // Пятнадцатые международные Плехановские чтения, 27 апреля РЭА.им. Г.В.Плеханова. – М., 2002.
 11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Под ред. А. Мадвалиева и др. – В 5-и т. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2006-2008. – I – 679 с.; II – 671 с.; III – 687 с.; IV – 606 с.; V – 591 с.
 12. Oxford Dictionary of English. – Oxford: Oxford University Press, 2003.
 13. Longman dictionary. – <http://global.longmandictionaries.com/>
 14. www.uzbekturizm.uz